

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY
MADANIYATLILIK KOMPETENSIYASI RIVOJLANTIRISHDA
UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINING AHAMIYATI**

Zokirova Ma'suma Qahramon qizi
Turan International University
Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi
O'qituvchisi
masumazokirova5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy madaniyatatlilik kompetensiyasi rivojlanirishda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ma'naviy tarbiya, axloq, axloqiy tarbiya, metod, tarbiya mazmuni, ma'naviy tarbiya konsepsiyasi.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение концепции непрерывного духовного образования в развитии компетентности духовно-нравственной культуры у учащихся младших классов.

Ключевые слова: образование, нравственное воспитание, этика, нравственное воспитание, метод, содержание образования, понятие духовного воспитания.

Abstract: This article discusses the importance of the concept of continuous spiritual education in the development of the competence of spiritual and moral culture in elementary school students.

Keywords: education, moral education, ethics, moral education, method, content of education, concept of spiritual education.

Mamlakatimizda xalq ta'lifi tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'lifning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlar xalq ta'lifi tizimidagi o'qitish samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator muammolarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Jumladan, ta'lim jarayoni darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, ma'naviy-axloqiy madaniyatatlilik, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlanirishga to'sqinlik qilayotganligi ko'pchilikka ma'lum muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, o‘quvchilarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorida uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi¹ qabul qilingan. Unga ko‘ra, aynan 5-bobi umumiy o‘rta ta’lim tizimida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohotlarni qamrab oladi:

VI bob. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish:

1. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr — 7 (6) — 10 yoshli davrda — boshlang‘ich sinflarda;

ikkinchi davr — 11 — 17 yoshli davrda — o‘rta va yuqori sinflarda.

2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, axloqiy tarbiya shakllantiriladi.

1.“UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINI TASDIQLASH VA UNI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA” gi 2019-yil 31-dekabr, 1059-sonli qarori

3. Boshlang‘ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

“Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiylarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim mazmuniga keng singdirish;

o‘quv fanlari doirasidagi ma’naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma’naviy-axloqiy kompetensiylar);

muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

o‘zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, axloqiy tarbiyaga o‘rgatish;

kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo‘lishi;

bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi;

o‘z xalqining va boshqa xalqlarning an’analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo‘lishi;

ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;

xavfsiz hayot ko‘nikmalarini mustahkamlash;

kasblar to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;

vijdonan mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish;

o‘zini-o‘zi baholashga o‘rgatish;

faoliyatda o‘zini ko‘rsatishga intilishni rag‘batlantirish;

tengdoshlari bilan ma’naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish.

4. Umumta’lim maktablarining o‘rta va yuqori sinflari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

o‘smirlilik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo‘lishi;

irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi;

ijtimoiy faollilik, bilihga intilish va o‘zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;

faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlар tizimining shakllanishi;

shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarning paydo bo‘lishi;

fuqarolik pozitsiyasi, o‘zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;

milliy qadriyatlар, an’analarga hurmatning namoyon bo‘lishi;

o‘zini-o‘zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;

o‘z muammolarini o‘zi mustaqil hal qilishga intilish;

xavfsiz hayot madaniyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning namoyon bo‘lishi;

axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e’tiqodning shakllanishi;

pozitiv ijtimoiy mo‘ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo‘lidagi intilishlar;

ma’naviy-axloqiy prinsiplarning qat’iylashuvi;

ichki his-tuyg‘ularga e’tiborning oshishi, emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo‘lishi;

mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishi.

5. “Uzlucksiz ma’naviy tarbiya” ruknida ota-onalar, o‘qituvchilar, bolalar va o‘smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik qo‘llanmalar majmuasini yaratish;

6. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan to'garaklar faoliyatini "Besh muhim tashabbus" asosida rivojlantirish.
7. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining "Tarbiya" fani o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish.
8. O'qituvchilar, ota-onalar, mahalla mutaxassislari uchun ma'naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullari bilan boyitilgan "Fazilatli avlod" va boshqa metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish.
9. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida buyuk ma'rifatparvar siymolar merosini targ'ib etishga qaratilgan "O'n ikki oy — o'n ikki alloma" kitobxonlik oyliklarini tashkil etish.
10. Aholi, o'qituvchilar, jamoatchilik, bolalar orasida uzlucksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini o'rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida bir yilda ikki marta sotsiologik so'rovlardan o'tkazish.
11. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimida uzlucksiz ma'naviy tarbiya samaradorligini o'lchash va baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish hamda bir yilda ikki marta o'lchash va "Ma'naviy tarbiya" respublika jamoatchilik kengashida muntazam muhokama qilib borish.
12. Ta'lim muassalarida o'quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning yangi, ta'sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.
13. O'g'il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
14. Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, axloqiy tarbiya, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo'stlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
15. Har yili bir marotaba "Milliy tarbiya va zamon" mavzusida pedagogik simpozium o'tkazib borish.
16. Teleradiokanalarda tarbiya mavzularida tok-shouular, ko'rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda "Tarbiya maktabi", "So'rang! Javob beramiz, o'rgatamiz" ruknida pedagogik chellenjlar tashkil etish.

Boshlang'ich ta'limda har bir o'quv predmetidan samarali foydalanish orqali kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, o'qituvchilardan ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvni taqozo

etadi. Innovatsion yondashuvlar o‘qituvchidan darsni yangicha metod va texnologiyalar asosida tashkil etishni taqozo etadi. Shuni e’tiborga olib, Respublika ta’lim markazi tomonidan maktablarda o‘qitiladigan “Tarbiya” fani uchun yangi saytini ishga tushirdi. Bu fan o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqod, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko‘rsatadiki, faqat ma’naviyat-ma’rifat keng quloch yoygan, ilm-fan taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyat fuqarolarida sog‘lom fikr, aql-idrok har doim ustuvor bo‘ladi.

Inson fazilatlari - bu shaxsni barqaror aqliy shakllanishi, jamiyatga ta’sir qiladi, faol ish olib boradi, boshqa odamlar bilan muloqot qiladi. Insonni inson sifatida tavsiflash uchun, u o‘zini xulq-atvorini namoyon qilishi kerak, chunki u o‘zini boshqalar bilan harakat va harakatlar orqali ochib beradi.

Insonning axloqiy fazilatlari. Axloq va axloq bilan chambarchas bog‘liq va bu fazilatlar bir-biridan kelib chiqadi.

Axloqiy fazilatlarni aniqlash va quyidagilar aniqlanishi mumkin:

- insonlarga xayriyohlik, zaif va noqulay ahvolga yordam berish;
- boshqalarga hurmat - har bir odamning farqli ekanini tushunish va har bir insonning hurmatga sazovor joyi borligini anglash;
- sadoqat - bu o‘z-o‘ziga va yanada global tushunchani - Vatanga sodiqlik bilan bog‘liq bo‘lgan sifat;
- o‘zboshimchalik qilmaslik - o‘z manfaatini ko‘zlamasdan, harakatlarning yaxshi niyatlardan voz kechishi;
- ma’naviyat insonning ruhini yuksaltiruvchi barcha axloqiy jihatlari va dindorlikni o‘z ichiga olgan sifatdir.

Jamiyatimizni axloqiy jihatdan mustahkamlash va taraqqiy ettirishda xalqimizning boy madaniy tarixini chuqur o‘zlashtirish, jahon madaniyati tarixida munosib o‘rin egallagan allomalarimizning merosini har tomonlama o‘rganishimiz va o‘rgatishimiz katta ahamiyatga egadir.

Jamiyat taraqqiyoti uchun, avvalo, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, asosiy e’tiborni o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasiga qaratish zarur. Negaki ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan shaxslarsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo‘lmaydi. Bugungi kunda har bir yosh avlod uchun ta’lim muassasalari moslashish, axloq va ko‘rsatmalarni shakllantirish muhiti hisoblanadi. Aynan yoshligida bola ijtimoiylashadi, ma’naviy va aqlan rivojlanadi, muloqot doirasini kengaytiradi, shaxsiy xususiyatlarini namoyon qiladi, uning ichki dunyosini belgilaydi. Yoshlik, odatda, shaxsiy va ma’naviy

fazilatlar shakllanadigan vaqtdir, Shuni takidlash joizki, madaniy, oilaviy, ijtimoiy va tarixiy an'analar orqali avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalqning milliy qadriyatları tayyorlangan o'quv dasturida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamadjanova N. A.Boshlang'ich sinf ingliz tili ta'limi jarayonida o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy madaniyatlilik malakalarini shakllantirish metodikasi: ped. fanl. b. falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati – N., 2022.51 b.
2. "UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINI TASDIQLASH VA UNI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA" gi 2019-yil 31-dekabr,1059-sonli qarori
3. www.lex.uz